

**O‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA MOLIVAVIY
MENEJMENT SAMARADORLIGINI INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA
BAHOLASH**

**EVALUATION OF FINANCIAL MANAGEMENT EFFICIENCY IN
EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN BASED ON AN
INDICATOR SYSTEM**

Saydalimova Zoxida Maratovna

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston ta’lim muassasalarida moliyaviy menejment samaradorligi 2019–2024-yillar ma’lumotlari asosida beshta indikator — byudjetdan tashqari mablag‘lar ulushi (BTMU), xarajatlar ijrosi koeffitsienti (XIK), bir o‘quvchi (talaba)ga to‘g‘ri keladigan xarajat (BXT), rivojlantirish jamg‘armasidan foydalanish darajasi (RJF) va kapital xarajatlar ulushi (KXU) yordamida baholangan. Tahlil natijalari ta’lim sohasiga ajratilgan byudjet xarajatlari va samaradorlik indikatorlarining ijobiy dinamikasini ko‘rsatadi hamda moliyaviy menejmentni takomillashtirish bo‘yicha amaliy yo‘nalishlarni asoslaydi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy menejment, samaradorlik indikatorlari, byudjetdan tashqari mablag‘lar, xarajatlar ijrosi, bir talabaga xarajat, rivojlantirish jamg‘armasi, kapital xarajatlar.

Annotation. The article assesses the efficiency of financial management in the educational institutions of Uzbekistan using five indicators for 2019–2024: the share of extra-budgetary funds, the expenditure execution coefficient, expenditure per pupil/student, the utilization level of development-fund resources, and the share of capital expenditures. The results reveal a positive dynamic in both budget allocations and efficiency indicators and substantiate practical directions for improving financial management.

Keywords: financial management, efficiency indicators, extra-budgetary funds, expenditure execution, expenditure per student, development fund, capital expenditures.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimiga yo‘naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi sezilarli darajada oshib, byudjetdan tashqari mablag‘lar ulushi kengaymoqda. Moliyaviy resurslar hajmining oshishi ularni maqsadli, shaffof va samarali boshqarish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu sababli ta’lim muassasalarida moliyaviy menejment samaradorligini faqat sarflangan mablag‘lar hajmi bilan emas, balki miqdoriy indikatorlar tizimi asosida baholash muhim ahamiyat kasb etadi (1; 2).

Mazkur maqolaning maqsadi 2019–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida ta'lim sohasiga ajratilgan byudjet xarajatlari dinamikasi, davlat oliy ta'lim muassasalarining (OTM) moliyaviy manbalari tarkibi hamda beshta samaradorlik indikatori yordamida moliyaviy menejment holatini kompleks baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik tahlil, tarkibiy tahlil va indikatorlar asosida baholash usullaridan foydalanildi. Ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Open Data portali (data.egov.uz) va Milliy statistika qo'mitasi (siat.stat.uz) ma'lumotlari asosida hisoblangan (4; 5). Moliyaviy menejment samaradorligini baholashda quyidagi beshta indikatoridan foydalanildi:

1) Byudjetdan tashqari mablag'lar ulushi (BTMU) = $(BTM / JMR) \times 100$, bunda BTM — byudjetdan tashqari mablag'lar, JMR — jami moliyaviy resurslar;

2) Xarajatlar ijrosi koeffitsienti (XIK) = $(HX / RX) \times 100$, bunda HX — haqiqatda sarflangan, RX — rejalashtirilgan xarajatlar;

3) Bir o'quvchi (talaba)ga xarajat (BXT) = $JX / O'S$, bunda JX — jami xarajatlar, O'S — o'quvchi (talaba)lar soni;

4) Rivojlantirish jamg'armasidan foydalanish darajasi (RJF) = $(RJS / RJT) \times 100$, bunda RJS — sarflangan, RJT — tushgan mablag';

5) Kapital xarajatlar ulushi (KXU) = $(KX / JX) \times 100$, bunda KX — kapital xarajatlar, JX — jami xarajatlar.

NATIJALAR

Byudjet xarajatlari dinamikasi. Ta'lim sohasiga ajratilgan davlat byudjeti xarajatlari 2019-yildagi 25,8 trln so'mdan 2024-yilda 71,2 trln so'mga yetib, umumiy hisobda 176 foizga oshgan. Ta'lim xarajatlarning davlat byudjetidagi ulushi 20,0 foizdan 22,9 foizga, ijtimoiy soha xarajatlardagi ulushi esa 2024-yilda 46,8 foizga yetgan. Bu ta'lim tizimi davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Ta'lim sohasiga ajratilgan davlat byudjeti xarajatlari dinamikasi (2019–2024-yillar)

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ta'lim xarajatlari, trln. so'm	25,8	31,5	38,7	47,8	61,2	71,2
Davlat byudjeti xarajatlari, trln. so'm	128,7	149,7	180,5	240,4	281,1	310,9
Ta'lim byudjetda, %	20,0	21,0	21,4	19,9	21,8	22,9

Ta'lim ulushi ijtimoiy sohada, %	41,3	40,3	39,3	38,2	43,5	46,8
----------------------------------	------	------	------	------	------	------

Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Moliyaviy manbalar tarkibi. Davlat OTMLarining jami moliyaviy resurslari 2020–2024-yillarda 8,8 trln soʻmdan 24,5 trln soʻmga yetib, qariyb 2,8 baravarga oshgan. Moliyaviy manbalar tarkibida toʻlov-kontrakt mablagʻlari yetakchi oʻrinni egallab, 2024-yilda 11,5 trln soʻmni tashkil etgan; davlat byudjeti mablagʻlari esa 9,2 trln soʻmga yetgan. Byudjetdan tashqari mablagʻlar ulushining 56,8 foizdan 62,4 foizga koʻtarilishi moliyaviy mustaqillik va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish jarayoni kuchayib borayotganini koʻrsatadi (2-jadval).

2-jadval. Davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari tarkibi (2020–2024-yillar)

Moliyaviy manba	2020	2021	2022	2023	2024
Davlat byudjet mablagʻlari, trln. soʻm	3,8	4,6	5,9	7,5	9,2
Toʻlov-kontrakt mablagʻlari, trln. soʻm	4,2	5,1	6,8	8,9	11,5
Rivojlantirish jamgʻarmasi, trln. soʻm	0,6	0,9	1,4	1,9	2,6
Grantlar va boshqa, trln. soʻm	0,2	0,3	0,5	0,8	1,2
Jami moliyaviy resurslar, trln. soʻm	8,8	10,9	14,6	19,1	24,5
Byudjetdan tashqari mablagʻlar ulushi, %	56,8	57,8	59,6	60,7	62,4

Manba: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va SIAT ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Samaradorlik indikatorlari. Hisob-kitoblar barcha indikatorlar boʻyicha ijobiy dinamikani koʻrsatdi. Byudjetdan tashqari mablagʻlar ulushi (BTMU) 2020–2024-yillarda 56,8 foizdan 62,4 foizga (+5,6 foiz punkt) oshgan; xarajatlar ijrosi koeffitsienti (XIK) 95,5 foizdan 98,3 foizga (+2,8 foiz punkt) koʻtarilgan. Rivojlantirish jamgʻarmasidan foydalanish darajasi (RJF) 70,0 foizdan 85,0 foizga (+15,0 foiz punkt), kapital xarajatlar ulushi (KXU) esa 2019-yildagi 15,1 foizdan 2024-yilda 19,7 foizga (+4,6 foiz punkt) yetgan (3-jadval).

3-jadval. Moliyaviy menejment samaradorligi indikatorlari dinamikasi

Indikator	2020	2021	2022	2023	2024
BTMU, %	56,8	57,8	59,6	60,7	62,4
XIK, %	95,5	96,3	96,6	97,9	98,3
RJF, %	70,0	76,7	79,3	82,1	85,0
KXU, %	16,2	17,0	18,2	19,1	19,7

Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi.

Bir o'quvchi (talaba)ga xarajat (BXT) indikator 2024-yilda ta'lim bosqichlari kesimida sezilarli farqlanadi: eng yuqori ko'rsatkich kasb-hunar ta'limida — 19,14 mln so'm/yil, oliy ta'limda — 13,62 mln so'm, umumiy o'rta ta'limda — 6,21 mln so'm, maktabgacha ta'limda esa 5,67 mln so'mni tashkil etgan. Bir o'quvchiga o'rtacha yillik xarajat 2019-yildagi 3,74 mln so'mdan 2024-yilda 8,00 mln so'mga (113 foizga) oshgan. Yuqori va quyi bosqichlar o'rtasidagi farq 3,4 baravarni tashkil etib, bu maxsus jihozlar, laboratoriya va amaliyot xarajatlarining farqi bilan izohlanadi.

MUHOKAMA

Barcha indikatorlarning bir vaqtning o'zida ijobiy dinamikasi ta'lim muassasalarida moliyaviy menejment tizimi bosqichma-bosqich takomillashayotganini tasdiqlaydi. Byudjetdan tashqari mablag'lar ulushining ortishi D. B. Johnstone tomonidan ilgari surilgan xarajatlarni taqsimlash («cost-sharing») konsepsiyasiga, davlat va xususiy manbalar o'rtasidagi muvozanatning shakllanishiga mos keladi (8; 9). Shu bilan birga, byudjetdan tashqari mablag'lar hajmining oshishi ularni shaffof, maqsadli va natijadorlikka yo'naltirilgan holda boshqarish zaruratini kuchaytiradi.

Xarajatlar ijrosi koeffitsientining yuqoriligi byudjet intizomining yaxshilanganini ko'rsatsa-da, u har doim ham yuqori samaradorlikni anglatmaydi: mablag' to'liq o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin, biroq uning ta'lim sifati va infratuzilma rivojiga ta'siri yetarli bo'lmasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli xarajatlar ijrosi natijadorlik indikatorlari bilan birga baholanishi zarur (6; 7).

Tahlil natijalari asosida quyidagi amaliy yo'nalishlar tavsiya etiladi: birinchidan, BTMU ko'rsatkichini 70 foiz darajasiga olib chiqish uchun xalqaro grantlar, ilmiy loyihalar va innovatsion tadbirkorlik daromadlari ulushini oshirish; ikkinchidan, RJF ko'rsatkichini 90 foizga yetkazish uchun jamg'arma mablag'larini boshqarishning raqamli platformasini joriy etish; uchinchi, BXT bo'yicha ta'lim bosqichlari o'rtasidagi tafovutni bosqichma-bosqich kamaytirish; to'rtinchidan, normativ va natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini chuqurroq joriy qilish. Ushbu yo'nalishlar strategik moliyaviy rejalashtirish, ichki audit, ochiq hisobot va raqamli moliyaviy monitoring bilan uyg'unlashtirilishi lozim (3; 10).

XULOSA

2019–2024-yillar ma'lumotlari tahlili O'zbekiston ta'lim tizimida moliyalashtirish hajmi va moliyaviy menejment samaradorligi indikatorlarining izchil o'sib borayotganini ko'rsatdi. Byudjetdan tashqari mablag'lar ulushi 62,4 foizga, xarajatlar ijrosi koeffitsienti 98,3 foizga, rivojlantirish jamg'armasidan foydalanish darajasi 85,0 foizga, kapital xarajatlar ulushi esa 19,7 foizga yetdi. Shu bilan birga, talabalar soni va qamrov darajasining tez o'sishi mavjud moliyaviy resurslardan oqilona, shaffof va natijador foydalanish zaruratini kuchaytiradi. Ta'lim muassasalarida moliyaviy menejmentni an'anaviy smeta yuritish modelidan strategik, ochiq, raqamli va natijaga yo'naltirilgan boshqaruv modeliga o'tkazish ta'lim sifati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. PQ-61-son, 24.12.2021. <https://lex.uz/docs/-5793251>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi to'g'risida»gi Qarori. 419-son, 01.08.2022. <https://lex.uz/docs/-6137567>
4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). Davlat byudjeti xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar. <https://www.imv.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim. SIAT statistik ma'lumotlar bazasi. <https://siat.stat.uz/>
6. OECD. (2025). Education at a glance 2025: OECD indicators. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/en/publications/2025/09/education-at-a-glance>
7. World Bank. (2023). Public financial management in education: Diagnostic tool. World Bank Group. <https://documents.worldbank.org/>
8. Johnstone, D. B. (2003). The economics and politics of cost sharing in higher education. Czech Sociological Review, 39(3), 351–374. <https://sreview.soc.cas.cz/pdfs/csr/2003/03/04.pdf>
9. Barr, N. (2004). Financing higher education: Lessons from economic theory and reform in England. London School of Economics. <https://ideas.repec.org/p/ehl/lserod/288.html>
10. Mahmudov, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. ScienceProblems. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/>